



**EKSTROKORPORAL URUG'LANISH ORQALI TUG'ILGAN BOLALARNING
PSIXOLOGIK RIVOJLANISHI**

Usmonova Xusnora Ergashovna

Тошкент тиббиет академияси академик лицейи психологи

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7179394>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada ekstrakorporal urug'lanish orqali tug'ilgan bolalarning psixologik rivojlanishi haqida bir qator ilmiy-psixologik va hayotiy mulohazalar o'rin olgan bo'lib, bu ko'pchilik uchun foydali bo'ladi degan umiddamiz.

Kalit so'zlar: Ekstrakorporal urug'lantirish, bepushtlik, onalik, farzand psixologiyasi, muhit, ota-ona, normal hayot, sharoit.

Hozirda tibbiyot kundan kunga rivojlanib borayotgan bir asrda yashamoqdamiz. Farzand ko'rishni istagan oilalarda, ba'zida ayol homilador bo'la olmaydi. Ekstrakorporal urug'lantirish bunday oilalar uchun bir umid. Tibbiyotda nisbatan yangi uslublardan biri bo'lishi qaramay, bugungi kunda bepushtlikka qarshi faol ravishda qo'llanilayotgan va samarali natijalar bilan yakunlanayotgan davolash turiga kirib ulgurgan. Shu sababli, mavzuga o'tishdan oldin ekstrakorporal urug'lantirish haqida biroz ma'lumot berishni lozim ko'rdik. Bu bepushtlik holatlarida qo'llanadigan ko'makchi reproduktiv uslub. Ushbu usulda dunyoga kelgan bolalarni «probirkadan chiqqan» deb atashadi. Chunki ekstrakorporal urug'lantirishda tuxum hujayra va urug' hujayradan embrion hosil bo'lishining sun'iy sharoitda – ya'ni «probirka»da kechadi. Bu texnologiya bepusht juftlarga tayinlanadi. Bir yil mobaynida juftlikning fertilligini o'rganiladi. Shu davr mobaynida homiladorlik sodir bo'lmasa, bepushtlik tasdiqlanadi. Uning sabablari o'rganib chiqilib, asoratlari bartaraf qilinadi. Davolanishdan so'ng ham homiladorlik sodir bo'lmasa, boshqa reproduktiv uslublarga murojaat qilinadi. Hozir tibbiyotda ayol bepushtligi, erkak bepushtligi, aralash bepushtlik, mijoz mos kelmasligi va yana boshqa bepushtlik turlari borligi aniqlangan. Masalan, erkak maniyasida urug' yo'q bo'lsa, urug' kichik urologik amaliyot yo'li bilan tuxumdon to'qimalaridan olinadi, ya'ni biopsiya qilinadi. Uning sifati aniqlangandan so'ng, urug'lantirish amalga oshiriladi. Bunday hollarda tuxum hujayra donordan (donor sifatida ayolning singlisi, opasi yoki boshqa ayol qarindoshlari bo'lishi mumkin) olinadi. Embrion ayolning bachadoniga ko'chiriladi, ya'ni ekiladi va homiladorlik sodir bo'lib, o'zi tug'adi. Hozirgi kunda ekstrakorporal urug'lantirish ko'p hollarda qo'llaniladi. Chunki, dunyoda demografik muammo yuzaga kelgan. Yevropa mamlakatlarida juftlik 3-6 oy davomida homilador bo'la olmasa, ularga ekstrakorporal





urug'lantirish taklif qilinadi. Ba'zi mamlakatlarda esa ekstrakorporal urug'lantirish davlat hisobidan amalga oshiriladi. Bunda inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligi ma'lum.

Bunday usulda tug'ilgan bola biologic va ijtimoiy munosabatlar mahsulidir, buning sababi, u doimo inson davrasida, ular bilan o'zaro ta'sir doirasida bo'ladi. Shunday ekan, uning hissiy va aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit katta o'rin tutadi. Shuningdek, dastlab bolaning ongi toza oq qog'oz singari bo'ladi va unga qanday chiziq tortsangiz o'sha chiziqlar saqlanib qoladi. Shuning uchun ham bola tarbiyasi haqida sharqda bejiz oila birlamchi, deb ko'rsatilmagan. Qizig'i shundaki, hamma narsa muhayyo bo'lgan bu oilada nimadir yetishmasdi. Sababi bu xonadonda o'yin-kulgi, hazil-huzul, erkinlik, tabiiyligi samimiylilik tanqis. Kattalar o'z olamida yashaydi.

Bolalar bir ota-onaning farzandi bo'lsa-da, ikki dunyoqarash, ikki xil tushunchalar asosida tarbiya topish ehtimoli ham bor. Ularning qarashlarida o'zini haq deb hisoblashlari ko'rinib turibdi. Aka ham yoki opa, uka ham o'zicha ota-onasini yaxshi ko'radi. Lekin bu muhabbat orasida farqni keltirib chiqargan muhit ularning tez-tez ziddiyatli bahslashuviga olib kelishi mumkin. ang'i tug'ilgan chaqaloq bu dunyoni onaning ko'zi bilan ko'radi. Dunyo yaxshiliklari-yu yomonliklari unga ota-ona uchun yaxshi va yomon bo'lgan narsalarda ko'rinadi. Bolaga ota-ona «Sening ko'zing chiroyli», deb aytsa, «Mening ko'zim chiroyli ekan,» degan fikr bilan katta bo'ladi. Xuddi shunday boshqa narsalarga ham bolaning munosabati – bu ota-onaning munosabatidir. Shunday qilib, ota-onaning baxtli ko'rinishi, tabassumi bola uchun baxt ma'nosini anglatadi. «Hayotda baxt bor va unga erishish uchun ota-onamdek munosabat qurishim kerak», degan psixologik qarash bilan katta bo'ladi. Lekin tez-tez janjallashib turadigan, ko'zlari ma'yus va xafa, ishi va hayotidan noliydigan ota-onani ko'rib o'sgan bola, katta bo'lganida xuddi shunday yashash tarzini o'z oilasiga va hayotiga olib kiradi. Bolaning o'z oilasiga ota-ona munosabatlarini olib kirishi psixologik holat sanaladi. Shunday ekan, ota-onalar hech qachon farzandining oldida janjallashmaslikka, bir-birini haqorat qilmaslikka, behurmatlik ko'rsatmaslikka harakat qilishi kerak. Hatto orqadan turib bolaga eshittirib turmush o'rtog'i haqida noma'qul gaplarni gapirish ham mumkin emas desak to'g'ri bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati::

1. Abdullaeva SH.A. Bolalarning tarbiyalanganlik darajasini diagnostika qilish va xulqidagi nuqsonlarni korrektsiyalashning pedagogik asoslari: Pedagogika





fanlari doktori darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtorefati. -O'ZPFITI,
2005. -15-20 b.

2. Ziyonet.uz

3. <https://journal.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/830>

